13-ma’ruza Internet tarmog’idan foydalanish.

Kalit so‘zlar: *portfolio, o‘qituvchi portfoliosi, o‘qituvchi papkasi, o‘qituvchi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar, o‘qituvchining o‘z ustida mustaqil ishlash yo‘nalishi va unga oid materiallar, o‘qituvchining muvaffaqiyatlari.*

Har yili oliy ta’lim muassasalarida pedagog xodimlarni faoliyatlarini o‘rganishlar amalga oshiriladi, pedagog xodimlar esa o‘z faoliyatlarida erishgan yutuq va marralarni har xil turdagi xisobot shakllarda taqdim etadilar hamda bu ishni zamonaviy kompyuter texnologiyalari orqali namoyish etish vazifasi turadi. Ushbu maqolada pedagogning elektron portfoliosini turlari va uning baholash to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.



Portfolio so‘zi ingliz tilidan tarjima qilinganda “muhim hujjatlar papkasi” degan ma’nonini bildiradi. Shuningdek, portfolio mutaxassisning o‘ziga xos yutuqlari jamlanmasi vazifasini ham bajaradi O‘qituvchi portfoliosi – o‘qituvchining pedagogik faoliyatida foydalanish maqsadida o‘zi tayyorlagan yoki to‘plagan hamda tizimga keltirgan metodik materiallar yig‘indisidir. Mazkur materiallar qog‘oz yoki elektron variantda bo‘lib, prezentatsiyalar, dars ishlanmalari, elektron resurslar, boshqa o‘qituvchilarning ilg‘or ish tajribalar, metodik tavsiyalar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Portfolio o‘qituvchiga darslarni qiziqarli va samarali tashkil etish bilan birgalikda, o‘z hamkasblarining ilg‘or ish tajribalaridan xabardor bo‘lish hamda o‘z tajribasini ommalashtirish imkonini

beradi. Bu tadbirni nafaqat maktab o‘qituvchilari balki, ta’lim muassasasi rahbarlari hamda barcha fan metodistlari tomonidan ham amalga oshirilishi tavsiya etiladi. “O‘qituvchi papkasi” ning strukturasi quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. O‘qituvchi to‘g‘risida umumiy ma’lumotlar:

Ismi – sharifi

Ma’lumoti

Mutaxassisligi

Malaka toifasi

Pedagogik ish staji

Dars berayotgan fani

Ish stavkasi (dars soatlari hajmi)

2. O‘qituvchining o‘z ustida mustaqil ishlash yo‘nalishi va unga oid materiallar:

Malaka oshirish kurslaridan o‘tganligi

Malaka oshirishdagi ijodiy ishlari

Konferensiyalar, seminar va turli o‘quvlarda ishtiroki

Turli yo‘nalishdagi tajriba-sinovlarda ishtiroki

3. O‘qituvchining muvaffaqiyatlari

Ilg‘or ish tajribasi

Yaratgan yangiliklari, o‘zining mahorati

Mukofotlari Ilmiy darajasi

Turli taqdirlashlar

Maktab direktori, direktorning o‘quv-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari maktabdagi dars jarayonini sifatli amalga oshirilishini nazorat qilishga shaxsan mas’ul hisoblanadi.

Shu sababli har kuni har bir o‘qituvchining dars ishlanmasini ko‘rib, tasdiqlash jarayonida ularda darsga kirish uchun quyidagi eng muhim hujjatlar bo‘lishini nazorat qiladi:

dars ishlanmasi (konspekti);

taqvim-mavzu reja;

o‘quv dasturi;

darslik;

darsga oid ko‘rgazmali vositalar (plakatlar, sxema jadvallar, xaritalar, elektron resurslar va boshq.)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Akbarov D., Abdukadirov A., Umarov S. Research of general mathematical characteristics of logical operations and table replacements in cryptographic transformations //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2022. – T. 2432. – №. 1. – С. 060020.